

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA CHET EL FUQAROLARINING VA FUQAROLIGI BO'LMAGAN SHAXSLARNING HUQUQIY HOLATI TO'G'RISIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2021-yil 3-martda qabul qilingan
Senat tomonidan 2021-yil 23-aprelda
ma'qullangan

1-bob. Umumiy qoidalar

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi va amal qilish sohasi

Ushbu Qonunning maqsadi O'zbekiston Respublikasida chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquqiy holati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Ushbu Qonunning amal qilishi boshqa davlatlar hududida doimiy yashaydigan, O'zbekiston Respublikasi hududiga kirib kelayotgan yoki uning hududida vaqtincha turgan, shuningdek O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashaydigan chet el fuqarolariga va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga nisbatan tatbiq etiladi.

Ushbu Qonunning amal qilishi chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida hamda xalqaro shartnomalarida belgilangan imtiyozlariga va immunitetlariga daxl qilmaydi.

2-modda. O'zbekiston Respublikasida chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquqiy holati to'g'risidagi qonunchilik

O'zbekiston Respublikasida chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquqiy holati to'g'risidagi qonunchilik ushbu Qonun hamda boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasida chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquqiy holati to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnomada qoidalari qo'llaniladi.

3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

fuqaroligi bo'lmagan shaxs — O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lmagan va o'zining chet davlat fuqaroligiga mansubligiga doir dalilga ega bo'lmagan shaxs;

chet el fuqarosi — O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga ega bo'lmagan, boshqa davlat fuqaroligiga va o'zining boshqa davlat fuqaroligiga mansubligiga doir dalilga ega bo'lgan shaxs;

chet el fuqarosining va fuqaroligi bo'lmagan shaxsning identifikatsiyalovchi ID-kartasi (bundan buyon matnda identifikatsiyalovchi karta deb yuritiladi) — identifikatsiyalovchi karta egasining shaxsini va fuqaroligini, shuningdek O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy ro'yxatga olinganligini tasdiqlaydigan, egasining shaxsga doir biografik va biometrik ma'lumotlari kiritilgan elektron jismni (chipni) o'z ichiga olgan hujjat;

harakatlanish hujjatlari — milliy pasportlar, shuningdek ularning o'rnnini bosuvchi boshqa hujjatlar bo'lib, ular asosida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga hamda xalqaro shartnomalariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududiga kirish (undan chiqish) va uning hududida bo'lish huquqiga ega bo'ladi.

4-modda. Ikki yoki undan ortiq davlat fuqaroligiga ega bo'lgan chet el fuqarolari

Ikki yoki undan ortiq davlat fuqaroligiga ega bo'lgan chet el fuqarolari qaysi davlat fuqaroligiga mansubligi to'g'risidagi hujjatlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasiga kirgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasida o'sha davlatning fuqarolari hisoblanadi.

5-modda. O'zbekiston Respublikasida chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquqiy holati asoslari

O'zbekiston Respublikasi hududidagi chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquq va erkinliklari xalqaro huquq normalariga muvofiq ta'minlanadi. Ular O'zbekiston Respublikasining [Konstitutsiyasi](#), qonunlari va xalqaro shartnomalari bilan belgilangan majburiatlarni o'z zimmasiga oladi.

O'zbekiston Respublikasi hududidagi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining qonuni oldida tengdirlar.

6-modda. O'zbekiston Respublikasi hududida vaqtincha turish tartibi

O'zbekiston Respublikasi hududida vaqtincha turgan, boshqa davlatlar hududida doimiy yashaydigan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar o'z tanloviga ko'ra o'zining amaldagi harakatlanish hujjatlari bo'yicha joylashtirish joylarida yoki boshqa uy-joy maydonida, shuningdek davolash muassasalarida vaqtincha yashashi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi hududida vaqtincha turgan, boshqa davlatlar hududida doimiy yashaydigan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar vaqtincha turgan joyi bo'yicha ro'yxatdan o'tadi.

Boshqa davlatlar hududida doimiy yashaydigan chet el fuqarolarini va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni O'zbekiston Respublikasi hududidagi vaqtincha turgan joyi bo'yicha ro'yxatga olish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

7-modda. O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashash tartibi

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashashi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashaydigan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar qonunchilikda belgilanadigan tartibda doimiy yashash joyi bo'yicha ro'yxatdan o'tadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashash joyi bo'yicha doimiy ro'yxatga olingan chet el fuqarolariga va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashaydigan chet el fuqarosining va fuqaroligi bo'lmagan shaxsning identifikatsiyalovchi kartasi beriladi.

Chet el fuqarolariga va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga identifikatsiyalovchi kartalarni rasmiylashtirish hamda berish tartibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadi.

8-modda. Siyosiy boshpana berish

O'zbekiston Respublikasida siyosiy boshpana chet el fuqarolariga va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga O'zbekiston Respublikasining milliy manfaatlarini hisobga olgan holda, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari hamda normalari asosida, ushbu Qonunga va O'zbekiston Respublikasining boshqa normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq beriladi.

Siyosiy boshpana o'z fuqaroligi bo'yicha mansub bo'lgan mamlakatda yoki doimiy yashash joyida ijtimoiy-siyosiy faoliyati, diniy e'tiqodi, irqiy yoki milliy mansubligi uchun ta'qib qilinishdan yoki ta'qibning jabrlanuvchisi bo'lishiga real tahdiddan, shuningdek xalqaro huquq normalarida nazarda tutilgan inson huquqlari buzilishlarining boshqa hollaridan boshpana va himoya izlayotgan, boshqa davlatlar hududida doimiy yashaydigan chet el fuqarolariga va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga, shuningdek ularning oila a'zolariga beriladi.

O'zbekiston Respublikasida siyosiy boshpana berish tartibi va shartlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadi.

2-bob. Identifikatsiyalovchi kartani berish va bekor qilish, uning amal qilish muddati

9-modda. Identifikatsiyalovchi kartani berish

Identifikatsiyalovchi karta:

O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashaydigan chet el fuqarolariga yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga — ular o'n olti yoshga to'lganida yoki ota-onasining, vasiylarning (homiylarning) ixtiyoriga ko'ra — bola tug'ilgan paytidan e'tiboran va o'n olti yoshga to'lguniga qadar;

O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashash uchun ruxsatnoma olgan shaxslarga, shu jumladan "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi **Qonuniga** muvofiq O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi tugatilgan, O'zbekiston Respublikasi hududiga kirib kelgan shaxslarga;

O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashaydigan, biroq O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini qabul qilmagan yoki "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi **Qonuniga** muvofiq O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi tugatilgan shaxslarga;

qonunchilikda belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasida ko'chmas mulk sotib olgan chet el fuqarolariga;

O'zbekiston Respublikasi hududida tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish bo'yicha korxonalar tashkil etish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlarida nazarda tutilgan shartlar asosida investitsiyalar kiritgan chet el fuqarolariga yoki fuqaroligi bo'lмаган shaxslarga, shu jumladan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarning muassislariga (ishtirokchilariga), shuningdek ularning oila a'zolariga;

O'zbekiston Respublikasida siyosiy boshpana berilgan chet el fuqarolariga yoki fuqaroligi bo'lмаган shaxslarga O'zbekiston Respublikasida siyosiy boshpana berilganligi to'g'risidagi guvohnoma asosida beriladi.

10-modda. Identifikatsiyalovchi kartaning amal qilish muddati

Identifikatsiyalovchi karta quyidagi amal qilish muddatlariga beriladi:

yangi tug'ilgan bir yoshgacha bo'lgan bolalarga — ikki yilga;

bir yoshdan o'n olti yoshgacha bo'lgan shaxslarga — besh yilga;

o'n olti yoshdan oltmis yoshgacha bo'lgan shaxslarga — besh yilga;

oltmis yoshdan oshgan shaxslarga — o'n yilga.

Chet davlatlarning O'zbekiston Respublikasida doimiy ro'yxatdan o'tkazilgan fuqarolariga identifikatsiyalovchi karta ularning milliy pasportlarining amal qilish muddatidan oshmaydigan muddatga beriladi.

Ushbu Qonun 9-moddasining **oltinchi xatboshisida** nazarda tutilgan chet el fuqarolariga va fuqaroligi bo'lмаган shaxslarga, shuningdek ularning oila a'zolariga identifikatsiyalovchi karta o'n yil muddatga, biroq o'z harakatlanish hujjatlarining amal qilish muddatidan oshmaydigan muddatga beriladi.

11-modda. Identifikatsiyalovchi kartani bekor qilish

Identifikatsiyalovchi karta quyidagi hollarda bekor qilinadi:

chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lмаган shaxs qonunchilikda belgilangan tartibda xorijga doimiy yashash uchun chiqib ketganda;

chet el fuqarolari O'zbekiston Respublikasidan tashqariga vaqtincha chiqib ketganda, agar ular uch yildan keyin uzrli sabablarsiz O'zbekistondagi doimiy yashash joyiga qaytmagan bo'lsa;

O'zbekiston Respublikasidan tashqariga vaqtincha chiqib ketgan fuqaroligi bo'lмаган shaxs harakatlanish hujjatining amal qilish muddati tugaguniga qadar uzrli sabablarsiz O'zbekistondagi o'z doimiy yashash joyiga qaytmaganda, harakatlanish hujjatini uzrli sabablarsiz xorijda almashtirmaganda yoxud uni almashtirishni rad etganda. Kasallik, yashab turilgan mamlakatda konsullik muassasasi mavjud emasligi va fuqaroga bog'liq bo'lмаган boshqa sabablar uzrli sabablar hisoblanadi;

identifikatsiyalovchi kartani bekor qilish to'g'risida chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lмаган shaxs shaxsan murojaat qilganda yoxud notarial tartibda tasdiqlangan ishonchnoma bo'yicha boshqa shaxs murojaat qilganda yoki xorijdagi tegishli organlarning so'roviga ko'ra;

chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lмаган shaxs O'zbekiston Respublikasidan tashqariga ma'muriy tarzda chiqarib yuborilganda;

sudning qaroriga asosan chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lмаган shaxs bedarak yo'qolgan deb e'lon qilinganda;

chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'Imagan shaxs vafot etganda — fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organining shaxsning o'limi haqidagi guvohnomasi yoki ma'lumotnomasi asosida;

O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashaydigan chet el fuqarosi va fuqaroligi bo'Imagan shaxs tomonidan O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi qabul qilinganda;

chet el fuqarosi o'z milliy pasportining amal qilish muddati tugagandan keyin olti oy ichida uni almashtirmaganda yoki o'z mamlakatining fuqaroligidan chiqqanligi to'g'risida ma'lumotnomasi taqdim etmaganda;

davlat boshqaruvi organlari, xo'jalik birlashmalari, respublika ahamiyatiga molik boshqa davlat tashkilotlari rahbarlarining iltimosnomasi asosida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'Imagan shaxslar tomonidan doimiy yashash uchun ruxsatnoma olinganda — ushbu organlar va tashkilotlarning bildirishnomasi asosida;

identifikatsiyalovchi kartani olish chog'ida shaxs tomonidan o'zi yoki o'z qarindoshlari haqida yolg'on ma'lumotlar, shuningdek qalbakilashtirilgan va soxta hujjatlar taqdim etilganda.

3-bob. O'zbekiston Respublikasida chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo'Imagan shaxslarning asosiy huquqlari, erkinliklari hamda majburiyatları

12-modda. Erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi

O'zbekiston Respublikasi hududida turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'Imagan shaxslar o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalanish, turar joyi daxlsizligi huquqiga ega. Hech kim O'zbekiston Respublikasining qonunida nazarda tutilgan hollardan va tartibdan tashqari birovning turar joyiga kirishi, tintuv o'tkazishi yoki uni ko'zdan kechirishi, yozishmalar va telefonda so'zlashuvlar sirini oshkor qilishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi hududida turgan chet el fuqarolariga va fuqaroligi bo'Imagan shaxslarga nisbatan faqat O'zbekiston Respublikasining qonunlari asosida protsessual majburlov va ma'muriy jazo choralar qo'llanilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining qonunchiligidan belgilangan tartibda ushlab turilgan yoki qamoqqa olingen chet el fuqarolariga va fuqaroligi bo'Imagan shaxslarga ularning huquqlari hamda ushlab turilishiga yoxud qamoqqa olinishiga sabab bo'lgan holatlар to'g'risida xabar qilinishi kerak.

13-modda. O'zbekiston Respublikasi hududi bo'ylab erkin harakatlanish huquqi

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'Imagan shaxslar ushbu Qonun hamda O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududi bo'ylab erkin harakatlanish huquqiga ega.

Chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo'Imagan shaxslarning O'zbekiston Respublikasi hududi bo'ylab harakatlanishi hududida O'zbekiston Respublikasi vakolatli davlat organlarining ruxsatnomalari asosida harakatlanish amalga oshiriladigan chegara zonalarida hamda chegara chiziqlarida cheklanishi mumkin.

Chegaraoldi hududlar aholisining o'zaro safarlari qoidalarini tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi bilan belgilangan hujjat asosida O'zbekiston Respublikasiga kirib kelgan chet el fuqarolari harakatlanishining o'ziga xos xususiyatlari O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida belgilanadi.

14-modda. Mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlar

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'Imagan shaxslar, agar O'zbekiston Respublikasining qonunlarida yoki xalqaro shartnomalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi hududida O'zbekiston Respublikasining fuqarolari bilan teng ravishda mulk huquqidan foydalanadi.

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'Imagan shaxslar O'zbekiston Respublikasining qonunlarida va xalqaro shartnomalarida belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi hududida o'ziga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulkni meros qilib olish yoki vasiyat qilish, shuningdek boshqa mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlardan foydalanish huquqiga ega.

15-modda. Mehnat faoliyatiga doir huquq

O'zbekiston Respublikasi hududida mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston Respublikasining mehnat to'g'risidagi qonunchiligiga muvofiq huquqlardan foydalanadi hamda ularning zimmasida majburiyatlar bo'ladi.

Chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning O'zbekiston Respublikasi hududida mehnat faoliyatini amalga oshirish tartibi O'zbekiston Respublikasining aholi bandligi to'g'risidagi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

Agar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq muayyan lavozimlarga tayinlanish yoki muayyan mehnat faoliyati turi bilan shug'ullanish O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga mansublik bilan bog'liq bo'lsa, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ushbu lavozimlarga tayinlanishi, saylanishi yoki muayyan mehnat faoliyati turi bilan shug'ullanishi mumkin emas.

16-modda. Ijtimoiy ta'minotga bo'lgan huquq

O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashaydigan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligidida va xalqaro shartnomalarida belgilangan tartibda, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng ravishda pensiya olish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashaydigan, pensiya tayinlash uchun zarur bo'lgan ish stajiga ega bo'lmagan chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning ijtimoiy ta'minoti tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

17-modda. Sog'lijni saqlashga bo'lgan huquq

Boshqa davlatlar hududida doimiy yashaydigan, O'zbekiston Respublikasi hududida turgan chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning sog'lijni saqlashga bo'lgan huquqi O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq kafolatlanadi.

O'zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan fuqaroligi bo'lmagan shaxslar sog'lijni saqlashga bo'lgan huquqdan O'zbekiston Respublikasining fuqarolari bilan teng ravishda foydalanadi.

18-modda. Ta'lim olish huquqi

Boshqa davlatlar hududida doimiy yashaydigan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga va qonunchiligiga muvofiq O'zbekiston Respublikasida ta'lim olishga haqlidir.

O'zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ta'lim olishda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqlarga ega.

19-modda. Nikoh tuzilganligini (nikohdan ajratilganlikni) qayd etishga va oilaviy munosabatlarga doir huquq

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston Respublikasi hududida nikoh tuzilganligini qayd etishga doir huquqqa ega.

Chet el fuqarolarining, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan nikohi tuzilganligini qayd etish hamda chet el fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar o'rtasida, shuningdek chet el fuqarolari va (yoki) fuqaroligi bo'lmagan shaxslar o'rtasida nikoh tuzilganligini qayd etish umumiy asoslarda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashaydigan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston Respublikasi hududida oilaviy munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng ravishda huquqlardan foydalanadi va ularning zimmasida majburiyatlar bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida, boshqa davlat hududida o'sha davlatning qonunchiligiga rioya etilgan holda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari hamda chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslar o'rtasida tuzilgan nikohlar, agar O'zbekiston Respublikasining oila to'g'risidagi qonunchiligidagi nazarda tutilgan nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar mavjud bo'lmasa, O'zbekiston Respublikasida haqiqiy deb e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslar o'rtasidagi nikohdan, shuningdek chet el fuqarolari o'rtasidagi nikohdan ajratish O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi.